



УДК 070.42(575.1)(091)

Sabogul SUYUNOVA,

O'zbekiston Milliy universiteti o'qituvchisi

E-mail: s.suyunova@gmail.com

ToshDO' TAU professori, f.f.d O.Hamrayeva taqrizi asosida

MUNAVVARQORI ABDURASHIDXONOV PUBLISISTIKASI VA MUHARRIRLIK FAOLIYATI

Аннотация

Maqolada o'zbek jadidchilik harakatining etakchilaridan biri Munavvarqori Abdurashidxonovning (1878-1931) "Taraqiy", "Sadoyi Turkiston", "Najot" va "Turkiston" gazetalarida e'lon qilingan 20 dan ortiq maqolalarning mavzular ko'lamini, yo'nalishi va "Turkiston viloyati gazetasi" dagi muharrirlik faoliyati tahlilga tortilgan. Jadid matbuotida e'lon qilingan bu maqolalar maktab va maorif, jaholatga qarshi ma'rifat, mamlakatdagi ichki tartiblar, oila va milliy axloq masalalariga bag'ishlangan. "Turkiston viloyatining gazetasi" 1870-yildan beri Rusiya muharrirlari tomonidan nashr etilib, unda mustamlakachilik siyosati aks etgan. Biroq 1917-yilda M.Abdurashidxonov gazeta muharriri etib tayinlangach, unda Turkiston hayotiga oid maqolalarga keng o'rin berildi va gazeta nomi "Najot" deb o'zgartirildi.

Kalit so'zlar: Jadidchilik harakati, matbuot, mavzular ko'lamini, maktab va maorif, marifat, tahlil.

ПУБЛИЦИСТИЧЕСКАЯ И РЕДАКЦИОННАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ МУНАВВАРКОРИ АБДУРАШИДХАНОВА

Аннотация

В статье анализируются объем и направление более 20 статей, опубликованных в газетах «Тараккий», «Садойи Туркистон», «Нажд» и «Туркистон» Мунавваркори Абдурашидханова (1878-1931), одним из лидеров узбекского жадидского движения, также редакторская деятельность автора в «Туркистон viloyati gazetasi» («Туркестанские ведомости»). Статьи Мунавваркори, опубликованные в жадидской прессе, в основном посвящены вопросам школы и образования, проблемам просвещения, внутреннего порядка в стране, семьи и национальной морали. «Туркестанские ведомости» издавались русскими редакторами с 1870 года и в основном отражали колониальную политику. В 1917 году, когда редактором газеты был назначен М. Абдурашидханов, в ней широко обсуждалась жизнь Туркестана, так как после закрытия данной газеты редактор изменил название «Наждот» («Спасение»).

Ключевые слова: Жадидское движение, пресса, тематика, школа и образование, просвещение, анализ.

PUBLICISTIC AND EDITORIAL ACTIVITY OF MUNAVVARKORI ABDURASHIDKHANOV

Annotation

This article analyzes more than 20 articles by Munavvarqori Abdurashidkhanov (1878-1931), one of the leading figures of the Uzbek Jadid movement, published in newspapers such as "Taraqiy", "Sadoyi Turkiston", "Najot", and "Turkiston". The study examines the thematic scope and orientation of these articles, as well as his editorial activity in "Turkiston Viloyati Gazeti". The articles published in the Jadid press focused on issues such as education and schooling, enlightenment against ignorance, domestic order in the country, family, and national ethics. "Turkiston Viloyati Gazeti", which had been published by Russian editors since 1870, reflected colonial policies. However, after M. Abdurashidkhanov was appointed editor in 1917, the newspaper began to give significant attention to issues related to the life of Turkestan, and its name was changed to "Najot".

Key words: Jadid movement, press, scope of topics, school and education, enlightenment, analysis.

Kirish: Munavvarqori Abdurashidxonov jadidchilik harakatining yetakchi namoyandalardan biri, o'zbek ma'rifatparvarligi, publisistika va matbuot rivojiga ulkan hissa qo'shgan siymolardan hisoblanadi. U o'zining serqirra faoliyati davomida millatni uyg'otish, ilm-ma'rifatni targ'ib qilish, zamonaviy fikr va qarashlarni shakllantirish yo'lida fidokorona xizmat qilgan. Ayniqsa, uning publisistik faoliyati o'z davri uchun nihoyatda dolzarb bo'lib, jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy muammolarni yoritish, xalq ongini o'stirish va milliy o'zlikni anglash masalalarini ilgari surishda muhim ahamiyat kasb etgan. Munavvarqori o'z maqolalari orqali jaholat, qoloqlik va eski qarashlarga qarshi kurash olib borgan, yangi usuldagi ta'lim va tarbiyani targ'ib qilgan. Shuningdek, uning muharrirlik faoliyati ham alohida e'tiborga loyiqdir. U bir qator gazeta va jurnallarda faol ishtirok etib, ularning mazmunan boyishi, saviyasi yuksalishi va xalq orasida keng tarqalishiga katta hissa qo'shgan. Muharrir sifatida u matbuotda haqqoniylik, aniqlik va ma'rifiylik tamoyillariga qat'iy amal qilgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Munavvarqori Abdurashidxonovning publisistikasi va muharrirlik faoliyatini o'rganish bo'yicha mavjud adabiyotlar mazmunan boy va turli yo'nalishlarni qamrab oladi. Ushbu mavzuga oid ilmiy anbalarni tahlil qilish orqali masalaning o'rganilish darajasi, asosiy

yondashuvlar hamda mavjud bo'shliqlarni aniqlash mumkin. Avvalo, jadidchilik harakati va uning namoyandalari faoliyatiga bag'ishlangan umumiy tadqiqotlar alohida ahamiyatga ega. Bu yo'nalishda yaratilgan asarlarda Munavvarqorining ijtimoiy-siyosiy qarashlari, ma'rifatparvarlik faoliyati va milliy uyg'onish jarayonidagi o'rni keng yoritilgan. Biroq ushbu tadqiqotlarda uning publisistik merosi ko'pincha umumiy kontekstda ko'rib chiqilib, batafsil tahlil yetarli darajada olib borilmagan.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqola mavzusini yoritishda qiyosiy-tarixiy, tafsirlash metodlaridan va adabiy asarlar tahlili usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Munavvarqori Abdurashidxonovning dastlabki publisistik maqolalari "Taraqiy", "Xurshid", "Shuhrat" va "Tujjor" gazetalarida nashr etilgan. "Taraqiy" (1906) ilk jadid gazetasi bo'lib, unda M.Abdurashidxonovning bir necha maqolalari chop etilgan. Jumladan, "Nigoh to'g'risida" maqolasi garchi oila masalalariga bag'ishlangan bo'lsa-da, unda asosiy masala sifatida maorif tizimisha e'tibor qaratilgan: "Hammaning maktab va madrasalari murattib va munzim, bizlarga usul va tartib, makruh va mahrum, oli alalxusus biz Toshkand musulmonlariga sunnat o'rnig'a bid'at, ufoq o'rnig'a nifoq, va'z va nasixat o'rnig'a jang va shikoyat, g'ayrat va hamiyat o'rnig'a xobu g'aflat", deb yozilgan[1]. Bu bilan muallif Yevropadagi maktab va o'quv

yurtlarining muayyan dastur asosida ish ko'rishi, o'quvchilar uchun nashr qilingan maxsus darslik va qo'llanmalarining mavjud bo'lgani holda Turkiston maktab va madrasalari jaholat o'chog'iga aylanganini ma'lum qilingan. Mamlakatdagi jaholatning sababai sifatida muallif uni boshqarayotgan podshoh va mustamlakachilarning millat ravnaqiga xizmat qilmayotganini ta'kidlaydi: "Podshoh va xonlarimiz bo'lsa, millatga qilgan xizmatlari xotin olmoq va kuchuk urushitirmoq va beg'ayat va behaqqoniyat kishilarni badarg'a qilmoq va tutib o'ldirmoq bo'ldi"[2]. Maqolada muallif millatning taraqqiy etishida islomiy oila bilan birga maktab va maorif ishlari yaxshilanishi lozimligini ta'kidlagan. Maqolaning xarakterli jihati shundaki, unda muallif nikohning halolligi, islomiy oila taraqqiy etishi uchun nimalar qilish kerakligi, maktab va madrasalardagi betartiblik haqida yozilgan, uning so'ngida muallif o'z mulohazalarini bir necha baytlarda ifoda qilgan:

Biza nechun ittifoq o'rmig'a odati ixtilof o'lmish,

Magar bizlarga ro'zi o'lmamish millatda g'ayratdan.

M.Abdurashidxonov "Bizni jaholat – jahli murakkab" maqolasida esa: "Har millatning maktab va madrasasi o'ldig'i kabi bizni ham maktab-madrasalarimiz garchi benizom va besul o'lsa ham, yo'q demak darajada oz emas", deb yozilgan. Shuningdek, maqolada ikki davr mustamlakachilik va jadidchilik davri voqealarini solishtirish holda mavjud ijtimoiy ahvolni ko'rsatib bergan. Birinchidan, «Darsga nima uchun kelganini bilmay, ilm va maorifga aslo rag'bat qilmay, jonidan shirin bolalarini ko'chama-ko'cha kezdirub, bechora ma'sumni aziz umrini jaholat otashini bildiruvchi behamiyat va bediyonat otalar ham oramizda oz emasdur», degan fikrlar bilan ilmga rag'bat qilmayotgan insonlarning qiyofasini ochib ko'rsatsa, ikkinchidan, ilm va ma'rifatni to'g'ri anglaydigan farzandlarni kelajak taraqqiyoti uchun ilmiy qilish kerak, degan fikrdagi insonlarning qiyofasini tasvirlaydi.

M.Abdurashidxonov o'zining publitsistik maqolalarida xalqni ma'rifatga chaqirishda murojaat usulidan foydalanadi. Uning so'zlaridan vatanga, xalqiga va millati taraqqiyotiga bo'lgan mas'ullik tuyg'usi jo'sh urib turadi: "Hoy vatandoshlar! Diqqat-nazar ila boqing", deb murojaat qilib, fikrni berishdan avval o'quvchini tahlil qilinayotgan masalaga e'tibor berishga chaqiradi. Ushbu maqolada ilm va uning foydasi hamda amaliy qimmatini to'g'risida fikrlar birdiriladi. Muallif maqolada xalq iboralaridan keng foydalanadi. Masalan, eski ta'lim va tarbiya usullari to'g'risida gapirib, "Eshagiga yarasha tushovi" degan maqolni ishlatadi, bu bilan muallif, birinchidan, millatdagi savodsizlikni nazarda tutsa, ikkinchidan, taraqqiyotsizlikni e'tiborga olgan.

M.Abdurashidxonov maqolasida maktablardagi ayrim fanlarning o'qitilishiga alohida e'tibor beradi. Chunki adabiyot va qiroat darslarida Fuzuliy, Navoiy, Xo'ja Hofiz, Bedil kabi ijodkorlar asarlarini o'qitish bilan birga, "Ilmi qiroat", "Masoili e'tiqodiy" ("E'tiqod masalalari"), "Masoili ilmiya" ("Ilm-fan masalalari"), "Ilmiy hisob" ("Arifmetika") kabi fanlarning o'qitilishi lozimligini alohida ta'kidlaydi. Muallifning fikricha, ustoz shoirlarning ijodini o'qitish bilan birga, aytilgan fanlar ham qo'shib o'rgatilsa, foydadan holi bo'lmasligini aytadi. M.Abdurashidxonov maktab o'qituvchilarning savodxon va ma'rifatli bo'lishini istaydi. Ayni davrda ayrim o'qituvchilarning o'zlari yetarli bilimga ega bo'lmasdan Munavvar qori jaholat deb tasvirlaydi. Munavvar qori Fuzuliy, Navoiy, Xo'ja Hofiz, Bedilning kitoblarini dastlabki savod o'rgatuvchi darslik sifatida qo'llab bo'lmasligini aytadi: "Vaholanki, boshqa viloyatlarda xat bilmaydurg'an kishi yuzdan o'n (foiz) bo'lsa, Turkiston viloyatida 100 dan 90 dir. Bundan ham ma'lum bo'ladurki, savodi chiqmoq bu kitoblarni o'qimoqqa muvofiq emas. Balki bu kitoblar g'oyat qiyinligidan bolalarni besavod qolmog'iga ham sabab o'lur". Munavvarqori bu bilan Fuzuliy, Navoiy, Bedil, Hofizlarning ijodini inkor qilmayapti, lekin u avval bolalarga savod chiqarish uchun yengil darsliklardan foydalanishni tavsiya qiladi.

M.Abdurashidxonovning bizgacha yetib kelgan maqolalarining aksariyati xalqni ma'rifatli qilishga bag'ishlangan. Adibning "Tujjor" gazetasining 1907-yil 8-oktabr sonida chop etilgan "Sababi tartib" maqolasida o'quvchilarga o'qish va

yo'zishni o'rgatishda usuli savtiyaning eski usullardan ko'ra qulayligi yillar davomidagi tajribalardan faoydalangani uchun barcha islom viloyatlari maktab va madrasalarida joriy qilingan tartiblar Turkiston viloyati o'qituvchilari uchun ham zarurligini ta'kidlaydi. Bu holatni muallif quyidagicha izohlaydi: "Muallimlarning bu rujulariga sabab, avvalo, usuli savtiyaning nadan tarkibiy ekonin bilmaganlari, soniyan Turkiston shevai turkiyasi ila tartib etilmish usuli jadida kitoblariga molik o'lmaganlari bo'ldi. Modomiki, bu sabablar mavjud ekan, o'qituvchi afandilarimiz rujularida haqli edilar. Chunki ul vaqtlarda Turkiston musulmonlarining gumonlaricha, usuli savtiya yol'g'iz Ibrohim Haqqiyning "Aqoid" manzumasi ila "O'qu Qur'on yaxshilab" misrasini ko'p e'tirof etgan totorcha bir tajvid manzumalardan iborat o'lub, hamma maktablarda, hatto ko'chalarda turluk savtlar ila ul ikki risolani o'qita boshlamishlar edi". Demak, o'qituvchilarning eski usulga qaytishlarining yagona sababi o'sha vaqtda birorta jadid adabiyoti bo'lmanligi, usuli savtiya faqatgina bitta kitob orqali o'tilganligi, bu kitob esa Ibrohim Haqqiyning "Aqoid" kitobi bo'lib, u ham tatarcha yozilganligi edi.

M.Abdurashidxonovning "Maorif" jurnali (1918, 27-dekabr) bosilib chiqqan "Turk sho'basining xizmatlari" maqolasida aytilishicha, "1918-yil 15-25-avgustda Toshkentda bo'lg'an Turkiston musulmon o'qituvchilari qurultoyi o'zining qarorlarini vujud'ga chiqarmoq uchun 12 kishidan iborat bir byuro saylab qoldirg'an edi. Byuro'ga saylanmish 12 a'zodan birinchisi o'z vazifasida davom etub, qurultoy qarorlarini teyishli o'runlarga etkurmok va o'zini hukumatdan tasdiq etdirmok chorasina kirishdi... Bu olti kishining shaxslari noma'lum o'ldig'indan qurultoy saylab qoldirg'an kishilarning har birlarini rasman murojaat qiling'an bo'lsa-da, taassufki, ba'zilaridan hech bir javob yo'q". Maqolada aytilishicha, 12 kishidan faqat uch kishi o'z ishiga jiddiy yondoshgan: bular Oqberdi, Munavvarqori va Shokirjon Rahimiydir. Adib bu bilan o'zi kirishgan ishini oxirgacha yetkazmasdan qo'ymasligini yana bir bor isbotlagan. "Turk sho'basi" o'z ustiga olgan xizmat va vazifani og'irlik va muhimligini e'tiborga olib, qo'lidan kelguncha ishlay boshlaganidan ham ko'rsak bo'ladi. Qurultoy o'z ishini muallimlarga xos bir jurnal chiqarmoq, maktab adabiyotlari va xaritalar tayyorlamoq, tarix, jug'rofiya, tabiiyot va matematikaga oid darsliklarni yaratish zarurligini ta'kidladi. Adib bu ishlar shunchaki bo'lmasligini yaxshi bilardi, shuning uchun Toshkentning barcha ziyoli aholisini chaqirib, arab va fors tilidagi kitoblarni tarjima qilish uchun taqsimlab berdi. Buning uchun yaxshigina haq to'lashini ham aytdi. Faqat bir tarafdan matbaa va qog'oz qahatligi bo'lsa, yana bir tarafdan tarjimaga olingan kishilarning ba'zilar kech aytilgan vaqtda keltirib topshirmaganligini ham keltirib o'tadi. Muallifning yozishicha, sho'ba a'zolaridan Shokirjon Rahimiy ist'efoga chiqqan. Shunday bo'lsa-da, sho'ba o'z ishini qolgan a'zolar bilan davom ettiradi va turk muallimlariga o'zlarining ehtiyojlarini yozib yuborsa kitob va alifbolarni bepul yetkazib berishlarini ma'lum qiladi.

Ko'rib o'tilgan maqolada Munavvarqori turkistonlik yoshlarni ilmiy qilish maqsadida tinimsiz harakatlar qilganligi va muallimlarga kerakli kitoblarni bepul berganligini, ko'plab fanlarga oid kitoblarni tarjima qildirib yoshlarni o'z tarixi, tabiatini yaxshi bilishlari uchun sharoit yaratadi. Maqolada turkistonlik yoshlarni o'z ona tillarini mukammal bilishlari va o'z haquhuqlarini o'rganishlari, sa'y-harakatlari orqali o'z xalqining milliy tilini saqlab qolishday mas'uliyatli ishni maqsad qilib olishlari bayon etilgan.

Munavvarqori Turkistonda ilm-ma'rifatni rivojlantirish bilan cheklanib qolmagan u xalqning yaxshi yashashi yo'lida ham ko'plab ishlar olib borgan. Maqolalarida Turkistonda vaqf ishlari haqida alohida to'xtalib o'tgan. O'sha davrda Turkiston hukmdorlari, ulamolar va ziyolilar madaniy-ma'rifiy ishga jiddiy ahamiyat berar edilar, har bir kishi xalq maorifi yordam berishni savob deb bilardi. Shuning uchun Turkistonda ulkan madrasalar, maktablar, kutubxonalar qad rostlagan edi. Har bir kishi o'qituvchi va o'quvchilarni moddiy ta'minlash uchun vaqf ta'sis etar, buning uchun o'z yerlari, saroylari, do'konlari va umuman, berish mumkin bo'lgan mulki bor edi. Ana shu maqsadda buyuk olimlar,

professorlar va faylasuflar voyaga yetishib chiqqan. Hatto katta shaharlardagi, xususan, Samarqand, Buxoro, Qo'qon, Toshkentdagi va ayrim qishloqlardagi ulkan madrasalar hamda ularning qoldiqlari, Samarqandda Mirzo Ulug'bek tomonidan qurilgan observatoriya binosi madaniyat va maorif o'sha paytda qanchalik yuksak bo'lganiga guvohlik beradi. O'sha paytdagi taraqqiyotga vaqflar sabab bo'lgan. Vaqflar faqat ruhoniylar qoldirgan merosni taqsim etish uchun emas, balki umumta'lim fanlarini o'qitish uchun ta'sis etilgan. Diniy ta'lim ham, xuddi rus maktablaridagi kabi umumiy fanlar va predmetlar qatori mustaqil predmet sifatida kiritilgan.

“Najot” gazetasi ma'rifiy g'oyalari uchun to'xtatilgan bir paytda uning o'rnida “Kengash” gazetasiga asos solingan. Bu

“Kengash” gazetasi ham avvalgi ma'rifiy yo'nalishini davom ettirgan. “Kengash” gazetasida jadidlarni tutgan yo'li va qilayotgan ishlari, bundan tashqari Turkiston musulmonlarining siyosiy, ijtimoiy, milliy va madaniy hayoti, Turkiston musulmonlari orasida mavjud bo'lgan tashkilotlarning ishlari, Markaziy sho'roning nizomnomasi yoritib borilgan.

Ko'rinadiki, M.Abdurashidxonov o'z maqolalarida jadid ma'rifatchiligi g'oyalarini targ'ib etish bilan birgan, milliy oilani, uning asosi bo'lgan bolalarni o'qitish, ilm-fanga rag'batli etib tarbiyalash vazifalarini jamiyat oldiga vazifa qilib qo'yadi. Bu vazifalarni bajarishni nafaqat uning o'zi, balki zamonisining ilg'or ziyolilaridan ham talab etadi.

ADABIYOTLAR

1. Abdurashidxonov M. Men sendamen... - T.: Info capital group, 2019.
2. Abdurashidxonov M. Xotiralarimdan / Jadidchilik tarixidan lavhalar. Nashirga tayyorlovchi va izohlar muallifi S.Xolboyev. - T.: Sharq NMAK, 2001.
3. Munavvarqori Abdurashidxonov. Adibi avval. - T, 1909.
4. Munavvarqori Abdurashidxonov. Adibi soniy. - T, 1910.
5. Аҳмедов С. Мунаввар қори // Шарқ юлдузи. 1992. 5-сон.
6. Эргашева Н.А. Жадидчилик ҳаракати ва Мунаввар қори // Халқ таълими. 1996, 5-сон.
7. Эргашева Н.А. Буюк тараққийпарвар // Ёшлик. 1996, 4-сон.
8. Қосимов Б. Миллий уйғониш. - T.: Маънавият, 2002.
9. “Taraqqiy” gazetasi, 1906. 7-mart (Munavvarqori maqolalardan ko'chirmalar ushbu nashr asosida beriladi: Abdurashidxonov M. Men sendamen... - T.: Info capital group, 2019. B. 196.
10. Abdurashidxonov M. Men sendamen... - T.: Info capital group, 2019. B. 31.